



**TASHKILOT MAQSADLARIGA ERISHISHDA STRATEGIK
REJALASHTIRISHNING AHAMIYATI**

Hasanov Shohruh Burxon o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
magistranti*

Zamonaviy korporatsiyaning rivojlanishi ichki elementlar va tashqi muhit orasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq bo'lib, korporatsiyaning yagona ijtimoiy organizmga aylanishini ta'minlovchi yangi boshqaruv yondashuvlaridan foydalanishni talab etadi. Bunda korporativ tuzilma rivojlanishining bir muncha mos mexanizmi bo'lib maksimal darajada ichki integratsiya hamda ichki omillar va tashqi muhit holatining o'zaro samarali uyg'unlashuvi hisobiga barqaror rivojlanish imkonini beruvchi strategik rejalashtirishdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy korporatsiyalarni rejalashtirish - bu avvalo strategik boshqaruv nazariyasida "strategik muvofiqliklar" deb ataluvchi sinergetik samaralarni olish maqsadida biznes sohasidagi ma'lum bir to'plamlarni boshqarishdir⁸². Shu sababli korporativ menejment oldida turuvchi bir muncha murakkab vazifa integral samaradorlikni maksimallashtirish uchun ular orasidagi o'zaro xatti-harakatlar va muvofiqlashtirishlarni tashkil etish hisoblanadi. Kompaniyaning ravnaq topishi barobarida aksiyadorlarning moddiy farovonligi ham oshishi tabiiy hol. Biroq, korporativ rejalashtirish jarayonida aksiyadorlar bilan kompaniyaning farovonligi o'rtasida birmuncha farq mavjud (ayrim vaqtlarda kompaniya va uning aksiyadorlari turlicha maqsadlarni ko'zlashi mumkin). Shunday ekan, samarali korporativ rejalashtirish tizimining asosiy maqsadi umumiy faoliyat qatnashchilarining turli xil manfaatlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam berishi, ishlab chiqarishning turli yo'nalishida band bo'lgan xodimlarning maqsadi ham umumlashib, foyda olishga qaratilgan bo'lishi lozim³⁷. Bu borada zamonaviy boshqaruv tamoyillari, xususiyatlari, korporativ boshqaruv tizimini to'g'ri yo'lga qo'yuvchi strategik rejalashtirish usullarini izchil tatbiq etish zarurati tug'iladi.

Strategik rejalashtirish ko'p jihatdan nafaqat tashqi muhitning keskin o'zgarishiga, balki ko'p maqsadli qarorlarni qabul qilishda murosallarni qidirib topish zaruratiga munosabat sifatida paydo bo'lgan. Strategik rejalashtirish tarixiy rivojlanishining har bir bosqichida uning turlicha jihatlariga e'tibor kuchaytirilganligini ta'kidlab o'tish mumkin. XX asrning birinchi yarmida strategik rejalashtirish rivojlanishida uzoq muddatli rejalarni ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilishga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, ikkinchi yarmida esa strategiyalarni ishlab chiqish va strategik rejalashtirish uslublariga, 60-80 yillarda esa strategik boshqaruvning turli hil modellarini ishlab chiqish va

⁸² Антонов В.Г., Крылов В.В., Кузьмичев А.Ю. и др. Корпоративное управление: учебное пособие / под ред. Антонова В.Г. -2-е изд. Перераб. И доп.-М.: ИД «ФОРУМ»: ИНФРА-М, 2010. -174 с.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



amaliyotda qo'llashga asosiy urg'u berilgan. O'tgan asrning 90 - yillaridan hozirgi vaqtgacha modernizatsiyalash jarayoni rivojlanishning asosi hisoblanmoqda.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, zamonaviy sharoitda strategik rejalashtirishning beshta vazifasini ajratib ko'rsatish mumkin: tijorat faoliyati turini aniqlash va uning strategik rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirish; umumiy maqsadlar va niyatlarni aniq xatti-harakatlar dasturiga aylantirish; qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun tanlangan strategiyani samarali amalga oshirish; tanlangan reja va istalgan natijalarga erishish uchun qo'shma xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish; bajarilgan ishlarni baholash, uzoq muddatli rejalarga va asosiy faoliyat yo'nalishlariga tuzatishlar kiritish.

Strategik rejalashtirish - firmaning yuqori rahbariyati faoliyati bo'lib, uning bosh vazifasi tashkilotning maqbul yo'nalishi va rivojlanish trayektoriyasini belgilash, asosli maqsad qo'yish, resurslarni oqilona taqsimlashdan iborat. Shuningdek, u kompaniya missiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish, maqsadlar, rejalar va bashoratlar, xo'jalik yuritish usullari, tashkiliy tuzilmalar va biznes-jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda strategik rejalashtirish bu - ma'lum sharoitda yashab qolish konsepsiyasidir. U tashkilotning kelajagi qanday bo'lishi kerak, qanday muhitda ishlashi kerak, bozorda qanday pozitsiyani egallashi lozim, raqobatchilikda qanday afzalliklarga ega bo'lishi, qanday o'zgarishlarni amalga oshirish kerakligi borasida ma'lum tasavvur beradi.